



## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK REFLEKSIYALASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Yuldasheva G.O’.*

*Urganch innovatsion universiteti stajyor-o‘qituvchisi  
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Tayanch so‘zlar:** bo‘lajak o‘qituvchilar, pedagogic refleksiyalash, refleksiya, refleksiv fikrlash, kasbiy, intellektual, shaxsiy refleksiya, kommunikativ refleksiya, kooperativ, ta’limiy jarayon.

**Ключевые слова:** будущие учителя, педагогическая рефлексия, рефлексия, рефлексивное мышление, профессиональная, интеллектуальная, личностная рефлексия, коммуникативная рефлексия, кооператив, учебный процесс.

**Key words:** future teachers, pedagogical reflection, reflection, reflexive thinking, professional, intellectual, personal reflection, communicative reflection, cooperative, educational process.

### **Резюме:**

Maqolada hozirgi ta’lim tizimimizning asl mohiyati bo‘lgan kelajak avlod uchun yuqori malaka-ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, pedagogik mahoratli va kasbiy pedagogik refleksiyaga ega bo‘lgan salohiyatli kadrlarni ishlab berish masalasi dolzarblik ahamiyat kasb etayotgan jadal rivojlanib borayotgan zamonamizda, bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish haqida so‘z yuritiladi.

### **Резюме:**

В статье все большую актуальность в нашу бурно развивающуюся эпоху приобретает вопрос подготовки потенциальных кадров, обладающих высокой квалификацией, педагогическим мастерством и профессиональной педагогической рефлексией для будущего поколения, что составляет реальную суть современной системы образования. сказано о развитии навыков педагогической рефлексии будущих учителей.

### **Summary:**

In the article, the issue of developing potential personnel with high qualifications, pedagogical skills and professional pedagogical reflection for the future generation, which is the real essence of our current education system, is becoming more and more important in our rapidly developing era. It is said about the development of pedagogical reflection skills of future teachers.

**Kirish.** Hozirgi ta’lim tizimimizning asl mohiyati bo‘lgan kelajak avlod uchun yuqori malaka-ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, pedagogik mahoratli va kasbiy pedagogik refleksiyaga ega bo‘lgan salohiyatli kadrlarni ishlab berish masalasi dolzarblik ahamiyat kasb etayotgan jadal rivojlanib borayotgan zamonamizda,



bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik refleksiylash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida ularni, didaktik va metodik qo'llab quvvatlash davlatimiz yuritayotgan oqilona siyosatiga javoban jamiyat oldidagi burchimizni bajarish hisoblanadi. Ilmiy mezonning qo'yilishi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida: "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ta'lim va fan sohasini rivojlantirish muhokamalari ko'ndalang qo'yilgan[1].

**Adabiyotlar tahlili.** Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o'z ongida kechayotgan mulohazalari haqida o'zi fikr yuritishi jarayoni, o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e'tiborini jalb qilishni anglatgan (Dekart). Sokrat, Platon, Lokk va boshqa Yunon faylasuflari refleksiyaning insonning o'z-o'zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e'tirof etishga karatilgan faoliyati ekanligini ta'kidlashadi. Kant, Gegel, Fixte, Shelling kabi yevropa faylasuflari esa refleksiya insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qarashganlar.

O'qituvchining kasbiy refleksiya haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun kasbiy refleksiya haqidagi ma'lumotlar bilish talab etiladi. Fanga kasbiy refleksiya tushunchasini B.Z.Vulfov olib kirgan. Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi:

1. Intellektual refleksiya: Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilish, obyekt va u bilan munosabat usullari haqidagi bilimlar hisoblanadi.

2. Shaxsiy refleksiya: O'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilish.

3. Kommunikativ refleksiya: Muloqot jarayonida sheriklarning o'zaro bir-birlarini tushunib munosabatga kirishishi.

4. Kooperativ refleksiya: Jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

B.Z.Vulfovning fikriga ko'ra, "kasbiy refleksiya jarayonida o'qituvchi o'zi tanlagan pedagogik kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqidagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan nisbatlaydi va «ixtiyoriy ravishda shaxsiy pedagogik mahorat zanjiri»ni hosil qiladi"[3]. Uning fikr mulohazasi L.S.Rubinshteynning "pedagogik faoliyatdagi tashqi sabablarning ichki shart-sharoitlar asosida bilvosita harakati" haqidagi mashhur qoidasini tasdiqlaydi [4]. G.M.Kodjaspurova o'qituvchining pedagogik faoliyati barcha qirralari bilan refleksiv hodisa bo'lsa, demak bu pedagogik refleksiya, degan nuqtai nazarni ilgari suradi.



**Tadqiqot metodologiyasi.** Refleksiya (lot. «reflexio» - orqaga qaytish) – “har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o‘z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma’naviy dunyosining o‘ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o‘z-o‘zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir”[2].

Bo‘lajak o‘qituvchilarining refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

- oliy pedagogik ta’lim jarayonida kreativ-innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik shart-sharoitlarini yaratish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ta’lim berish va ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda talabalarga mutaxassilik fanlari doirasida refleksiv bilimlarni singdirish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularda refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalarni saralash, tizimlashtirish va ulardan foydalanish metodlarini tavsiya etish;

- refleksiv yondashuv asosida yangi zamonaviy fan va o‘quv dasturlarini qayta ishlab chiqish va takomillashtirish.

- bo‘lajak o‘qituvchilarni refleksiyalash qobiliyati mazmunini belgilashga qo‘yiladigan talablar va uni tanlash prinsiplarni ishlab chiqish;

Pedagogik refleksiyaning shakllanishi va rivojlanishi uchun aynan shakllanuvchi va rivojlanuvchi refleksiyada shart va sharoitlarni mavjudligi katta ahamiyat kasb etadi. Pedagogik refleksiyaning birinchi sharti, rivojlantirishning dastlabki faoliyati hisoblanadi.

Pedagogik refleksiyani rivojlantirishning ikkinchi pedagogik sharti refleksiv muhit mavjudligi hisoblanadi.

Pedagogik refleksiyani rivojlantirishning uchinchi pedagogik sharti refleksiv faoliyat qatnashchilari o‘rtasida subyektlararo munosabatlarni faollashtirish sanaladi.

Pedagogik refleksiyani rivojlantirishning to‘rtinchi sharti pedagogik refleksiyaning dolzarbligi hisoblanadi.

**Tahlillar va natijalar.** Pedagogik refleksiyaning mavjud emasligi yoki etarlicha shakllanmaganligi o‘qituvchini to‘liq tashqi omillarga – rag‘batlarga, sharoitlarga, ta’sirlarga bog‘liq qilib qo‘yadi, uni begona irodaning ijrochisiga aylantiradi [5].

O‘qituvchi pedagogik mahoratning asosiy xususiyatlaridan biri uning rivojlanishida uzluksizlikning mavjudligidir. Demak, refleksiv jarayonda o‘qituvchining kasbiy mahorati, kasbiy sifatleri mavjudmi yoki yo‘qmi deb qayd etish kerak emas, balki ularning rivojlanishini, boyib borishini, kuchayishini inobatga olinishi lozim. Ta’lim jarayoni aynan shunga xizmat qilishi kerak, qachonki



bilimlar, ko'nikma va malakalar ongli ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilinsagina u ishlanadi.

Kasbiy pedagogik faoliyatda refleksiv jarayonlarni o'rganib ta'kidlash mumkinki, refleksiya nafaqat pedagogik faoliyatni rejalashtirish bilan bog'liq hodisa, balki refleksiya mohiyatini kasbiy faoliyatni optimallashtirish maqsadida ham qo'llanadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan talablar va ular faoliyatining refleksiya qilishi bugun ziyolilarning vazifasidir.

O'qituvchining «o'z-o'zini kasbiy jixatdan har tomonlama mukammal takomillashtirishi» hamisha amalga oshadigan faoliyat emas. Shunga qaramay, o'qituvchining o'zi haqidagi deyarli har qanday fikr-mulohazasi, kasbiy refleksiyaning deyarli har bir jarayoni, kasbiy faoliyatni qiziqarli qilish uchun muhim ahamiyatga ega: chin ko'ngildan bajariladigan og'ir mehnat ham kasbiy faoliyatni osonlashtiradi, bu esa refleksiyaning mazmun mohiyati asoslaridan biridir.

**Kasbiy refleksiya** o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishda (bu uning o'z ijodiy mednati natijasidan ko'nikmasligi aslo mumkin emasligi bilan belgilanadi) shijoati, kasbiy faoliyatiga oid yangiliklarni muntazam izlanishida, ijodkorligida namoyon bo'lishi bilan asoslanadi, demak refleksiya o'qituvchining o'z-o'zini kasbiy takomillashtirishiga ham asos bo'ladi, deb aytish mumkin.

Kasbiy pedagogik faoliyatda refleksiv jarayonlarni o'rganib ta'kidlash mumkinki, refleksiya nafaqat pedagogik faoliyatni rejalashtirish bilan bog'liq hodisa, balki refleksiya mohiyatidan kasbiy faoliyatni optimallashtirish maqsadida ham qo'llaniladi. Ba'zi olimlarning fikricha, refleksiya - asrlar davomida o'qituvchining kasbiy faoliyatida to'planib kelingan tajribalarida, uning xulq-atvori, muloqot madaniyati, tafakkurida yig'ilgan eski andozalarni, kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi.

O'qituvchining kasbiy refleksiyasiga pedagogik fikrlashning zarur tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin, u o'qituvchiga o'z kasbiy faoliyatiga tahliliy yondashishni, o'zining pedagogik faoliyatdagi o'rnini aniqlash va rejalashtirilayotgan ishlarda ijobiy natijalarga erishish uchun pedagogik faoliyatni maqsadli o'zgartirishning optimal yo'llari vositalarini topish imkoniyatini beradi.

Refleksiyaning kasbiy qiyinchiliklarni yengishdagi rolini o'rgangan V.A.Metaevaning ishlari hozirgi kunning eng dolzarb tadqiqotlaridan biri sanaladi [6]. Olima refleksiyaning rivojlanganlik «o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi qiyinchiliklarni samarali hal qilishning asosi bo'lmish» pedagogik mahorat natijasida muvaffaqiyatlarga erishishiga bog'liq, degan xulosaga keladi. Biroq, bizning fikrimizcha, o'qituvchi pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishi unda refleksiyaning mukammal rivojlanganlik darajasini belgilamaydi, aksincha



ta'lim-tarbiyada o'qituvchining muvaffaqiyatga erishishi, o'z faoliyati natijalaridan qoniqishi, o'qituvchining shakllangan kasbiy pedagogik refleksiya bog'liq.

Pedagogik refleksiya o'qituvchiga o'z-o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish manbalarini o'z bilimi va imkoniyatlaridan izlab topishda ko'maklashadi hamda uning rivojlanishini ta'minlaydi.

O'qituvchi pedagogik faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan ko'p yillik tajribalar asosida qilingan nazariy xulosalar pedagogik mahoratning rivojlanish jarayonini beshta elementdan iborat tizim asosida o'rganish imkoniyatini beradi. Bu o'qituvchining kasbiy refleksiya rivojlangani sari kechadigan va uning asosida o'zluksiz pedagogik kasbiy mahoratini va o'z - o'zini takomillashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan jarayonlarni chuqurroq tushunishni ta'minlaydi.

O'z-o'zini bilish jarayoni o'qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. O'qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni shunchaki qayd qilib boradi.

O'z - o'zini anglash jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan «metapozitsiya» (noaniq pozitsiyada)da turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini ko'zatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) xodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarni kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi, reflektiv - «MEN» shakllanadi. Bu o'qituvchining dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog'liq.

O'z-o'zini belgilash jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. O'z-o'zini rivojlantirish jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyati davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksiyalangan (ya'ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodlarining o'sishi sodir bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilish o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z-o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni refleksiyalash qobiliyatlarini rivojlantirishda uning nazariy asoslarini aniqlashtirish va uning natijasida rivojlantiriluvchi ko'nikamaga to'g'ridan to'g'ri birlamchi ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Refleksiya qobiliyatining nazariy asoslari quyidagilardir:



Metakognitiv nazariya: Ushbu nazariya o‘z-o‘zini anglash va tahlil qilishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu bo‘lajak o‘qituvchiga o‘zining o‘quv jarayonini boshqarish va nazorat qilishda yordam beradi.

Tajribaviy o‘rganish nazariyasi: Ushbu nazariyada refleksiya qobiliyati tajriba orqali rivojlanadi, ya’ni o‘qituvchi o‘z faoliyatidagi xatolarni tahlil qilib, ulardan o‘rganadi.

Sotsiokulturaviy nazariya: Bu nazariya refleksiya jarayonini ijtimoiy va madaniy muhit bilan bog‘laydi. O‘qituvchi jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashish uchun refleksiya qilish zaruratini his qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitish jarayonida pedagogik refleksiyalash qobiliyatidan optimal foydalanish yuqori samaradorlik kasb etadi. Bu borada ma’lum tamoyillar asosida faoliyat yuritish ta’lim uzluksizligini ta’minlash va malakali kadrlar tayyorlashning muhim omilidir. Bu tamoyillarni ma’lum darajada tizimlashtirish hozirgi o‘quv jarayonidagi murakkablikni oldini imkonini beradi bular:

I. Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini tahlil qilish va kasbiy-pedagogik yutuqlar darajasi va sifatini tuzatish ehtiyojini shakllantirish tamoyili:

- o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi takomillashtirish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini o‘zi tasdiqlash va boshqalar modelida ichki va tashqi rivojlanishning birligi tamoyili;
- ta’lim oluvchi-nogironlarda psixotravma va rivojlanish va salomatlik nuqsonlari xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
- shaxsning o‘zini o‘zi anglash istiqbollarini tanlashda zamonaviy ta’limni insonparvarlashtirish tamoyili;
- o‘qituvchining faoliyat va muloqotning ideal va moddiy obyektlarini ishlab chiqarish shartlari va amaliyotini yangilashga innovatsion tayyorlik tamoyili;
- shaxsning yetakchi faoliyati va muloqotining barcha resurslari va munosabatlarini o‘zgartirish natijadorligini shakllantirish tamoyili.

II. Shaxs va jamiyat hayot faoliyatining yuksak yutuqlari va sifatli mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish tamoyili:

- kasbiy o‘zini o‘zi tasdiqlash va o‘zini o‘zi amalga oshirish modelini tanlashda pedagogning kasbiy shakllanishi shart-sharoitlarini optimallashtirish tamoyili;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini amalga oshirish muammolarini hal qilishda tanlov modelini shakllantirish va tasdiqlash tamoyili (case-textnologiyalar);
- uzluksiz kasbiy ta’lim sharoitiga kiritilgan ta’lim oluvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va o‘zini o‘zi anglash asoslarini aniqlashda mahsuldorlik tamoyili;



uzluksiz kasbiy ta'lim tizimiga kiritilgan shaxsning yetakchi faoliyati modelini aksiopedagogik loyihalashtirish tamoyili.

Refleksiya pedagogikada quyidagi yo'nalishlarda talqin etilgan: Refleksiya muayyan xodisalar, shart-sharoitlar, jarayonlarni tahliliy jihatdan o'rganishni ifodalaydi. Refleksiyaning obyektlari shaxsning ta'lim-tarbiyasi, madaniykasbiy rivojlanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Refleksiya jarayonlari bo'lajak mutaxassisning kasbiy-madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mavjud kamchiliklarni aniqlash va korreksiyalash imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarining refleksiya qilish qobiliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

- oliy pedagogik ta'lim jarayonida kreativ-innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarda metodik shart-sharoitlarini yaratish;

- bo'lajak o'qituvchilarning metodik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ta'lim berish va ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda talabalarga mutaxassilik fanlari doirasida reflektiv bilimlarni singdirish;

- bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularda refleksiya qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalarni saralash, tizimlashtirish va ulardan foydalanish metodlarini tavsiya etish;

- reflektiv yondashuv asosida yangi zamonaviy fan va o'quv dasturlarini qayta ishlab chiqish va takomillashtirish.

- bo'lajak o'qituvchilarni refleksiya qilish qobiliyati mazmunini belgilashga qo'yiladigan talablar va uni tanlash prinsiplarni ishlab chiqish;

**Xulosalar.** Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik refleksiya qilish qobiliyatini rivojlantirish, ularni professional tayyorgarlik jarayonida muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchilarning o'z faoliyatini samarali tahlil qilishiga, tajribadan o'rganishiga va natijada ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Nazariy asoslar va amaliy usullar orqali pedagogik refleksiya rivojlanishi, o'qituvchilarning o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017, 13-fevral, 6-son, 70-modda.
2. Философская энциклопедия. - М.: Советская энциклопедия. 1967. - 4-т. 499 б.
3. Вульф Б.З. Семь парадоксов воспитания. - М.: Новая школа, 1994.
4. Рубинштейн, Л.С. О мышлении и путях его исследования / Л.С.Рубинштейн. - М., 1958
5. Qurbonov Sh.Э., Seytxalilov E., Quronov M., Ahlidinov R.,Majidov I. Milliy istiqloq g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. - Toshkent: Akademiya, 2002. - 280 b..
6. Металева В. А. Рефлексия как метакомпетентность / В. А. Металева // Педагогика. - 2006. - # 3. - С. 57-61.